

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA HARORAT TA'SIRI NATIJASIDAGI DESTRUKSIYANI IFODALOVCHI FE'LLARNING SEMANTIK TAHLILI

Amonova Zamira Bo'riyevna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: off.net@inbox.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada nemis va o'zbek tillarida harorat ta'siri natijasida yuzaga keladigan destruktiv jarayonlarni ifodalovchi fe'llarning leksik-semantik xususiyatlari chog'ishtirma tahlil qilinadi. Nemis va o'zbek tillarida harorat destruksiyasi bilan bog'liq fe'llarning semantik maydoni umumiy va xususiy jihatlariga ega ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: harorat destruksiyasi, destruksiya ma'noli fe'llar, leksik-semantik guruh, qiyosiy tahlil, fe'l semantikasi.

Аннотация. В статье проводится сравнительно-семантический анализ глаголов, выражающих деструктивные процессы под воздействием температуры в немецком и узбекском языках. Полученные результаты вносят вклад в развитие сопоставительной семантики и переводоведения.

Ключевые слова: температурная деструкция, глаголы со значением деструкции, лексико-семантическая группа, сопоставительный анализ, семантика глагола.

Abstract. The article presents a comparative-semantic analysis of verbs that express destructive processes caused by temperature in the German and Uzbek languages. The obtained results contribute to the development of comparative semantics and translation studies.

Keywords: temperature-related destruction, verbs with the meaning of destruction, lexical-semantic group, comparative analysis, verb semantics.

Tilshunoslikda fe'l ma'nosi ko'pincha bir nechta semantik komponentlardan tashkil topgan murakkab tizim sifatida talqin qilinadi [1]. Nemis va o'zbek tillarining semantik tizimida harorat ta'sirida yuz beradigan destruktiv harakatni ifodalovchi leksik birliklar alohida e'tiborga molik. Bunday turdagi fe'llar, odatda haroratning obyektga nisbatan ta'siri orqali undagi jismoniy yoki kimyoviy holatning o'zgarishi, buzilishi, parchalanishiga olib kelishini bildiradi.

Harorat destruksiyasi (yoki issiqlik destruksiyasi) bu – moddalarning harorat ta'sirida jismoniyaviy va ba'zida kimyoviy o'zgarishlarga uchrashi jarayonidir. Ushbu jarayon doim ham kimyoviy reaksiyalarga olib kelmaydi; u ko'pincha moddada strukturaviy deformatsiya, yumshash yoki barqarorlikni yo'qotish kabi jismoniy holatlar bilan kechadi. A.V.Bondarko funksional semantik maydon nazariyasida fe'llarning semantik tuzilishini harakat usuli, davomiyligi, jadalligi va natijaviyligi kabi komponentlar asosida tavsiflaydi [2]. Ushbu yondashuv harorat destruksiyasi bilan bog'liq fe'llarni tizimli tahlil qilish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu fe'llar harakatning usuli (isitish yoki sovitish orqali), maqsadi (obyektning tuzilishi – makro va mikrostrukturasi o'zgartirish, hajmini kamaytirish, yangi xossa berish berish yoki buzish va yo'q qilish), natijasi (suyuqlanish, bug'lanish, muzlash, parchalanish, cho'kma hosil qilish) kabi semantik komponentlarni o'z ichiga oladi [3].

Harorat destruksiyasi jarayonida biror narsani qizdirish, muzlatish (jonli mavjudotlar yoki ularning ta'na a'zolariga muzlash orqali zarar yetganda), bug'latish kabi jismoniy

jarayonlar orqali ta'sir etilayotgan obyektning o'zgarishi bo'yicha natija kutiladi va ushbu jarayon o'ziga xos semantik guruh fe'llari orqali o'z ifodasini topadi: *die Milch wurde langsam erhitzt, bevor sie gekocht wurde*; Misolda berilgani kabi, *erhitzen* "qizitmoq" fe'li sutga issiqlikning asta-sekin berilishi va uning ta'sirida (shu yo'l bilan) sut isib, qaynash jarayoniga o'tishi anglashiladi; *Azima tandirni qizitib, nonni yopib oldi*. Ushbu gapda Azimaning tandirni qizitish yo'li bilan nonni pishirib olishga erishgani ifodalangan. Nemis va o'zbek tillarida harorat destruksiyasini ifodalovchi fe'llar quyidagilarni tashkil qiladi: *abbraten* qovurmoq *den Fe'leisch in der Pfanne braten* 'go'shtni (tovada) qovurmoq'; *abbrennen* yoqmoq, kuydirmoq, yoqib (kuydirib, yondirib) yubormoq (tashlamoq); *abbrühen* (biror narsaning ustidan) issiq suv quymoq; qaynoq suvga chaymoq (yuvmoq); *abfrieren* 1. muzlab qolmoq, sovuq yeb qolmoq, sovuq ta'sirida nobud bo'lmoq, muzqotmoq *Pflanzen frieren ab* o'simliklarni sovuq oladi (uradi); *abkochen* dezinfeksiya qilmoq (qaynatmoq), qaynatib bakteriyalardan tozalamoq *medizinische Instrumente abkochen* 'tibbiy anjomlarni dezinfeksiya qilmoq'; *abschmelzen* erib ketmoq, erib ajralmoq *Eis schmilzt ab* 'muz erib bo'laklarga ajraladi' *ein Metall schmilzt ab* 'metal eriydi'; *anbraten* (bir oz/yuzasini) pishirmoq; qovurib olmoq *Fleisch a.* go'shtni (biroz) qovurib olmoq; *anbreunen* bir oz qovurib qizartirib olmoq; *Zwiebeln a.* piyozni (bir oz qovurib) qizartirmoq; *anbrennen* biroz kuyib qoraymoq, tagiga olmoq *das Essen brennt an* ovqat tagiga olmoqda; *ansengen* (sich (Dat)) *etw. a.* (biroz) kuydirib qo'ymoq, kuydirib olmoq; *sich die Haare a.* sochini kuydirib olmoq; *aufbrennen* kuzdirib o'ymoq, (kuydirib) belgi/tamg'a tushirmoq; *aufheizen* qizdirmoq *Mittags heizt die Sonne das Wasser auf* 'kunduzi quyosh suvni qizdiradi'; *aufkochen* qaynatmoq; *die Suppe a.* 'sho'rvani qaynatmoq'; *aufschmelzen* 1.(biroz/sirtini) eritmoq 2.(biroz/sirti) erib ketmoq; *aufwallen* qaynab toshmoq, ko'pirmoq; *die Milch kurz a.* lassen sutni biroz ko'pirtirib qaynatmoq; *aufwärmen* (taomni yana bir bor, qayta) isitmoq, ilitmoq; *ausbrennen* yonib tushmoq, yonib kul bo'lmoq (biror narsa yoki uning ichki qismlari); *ein Haus brennt aus* 'uy yonib tushadi'; *ausdorren* biror narsa (kuchli va muntazam qurg'oqchilikdan) quriydi, qovjiraydi, qaqshaydi; *ausfrieren* sovuq urmoq, sovuq urib ketmoq, sovuq urib nobud bo'lmoq/o'lmoq; *austrocknen* quritib yubormoq, qovjiratmoq, qaqratmoq; *die Sonne hat den Boden ausgetrocknet* 'quyosh yerni qaqratdi'; *brennen* yonmoq, kuymoq *ein Feuer brennt* 'olov yonadi', *e-e Kerze brennt* 'sham yonadi', *dürre Äste brennen wie Stroh* 'qurigan shoxlar (xuddi poxol kabi) juda yaxshi yonadi'; *dorren* quritmoq, qoqlamoq, qoqi qilmoq; *Obst d.* mevani qoqlamoq; *dünsten* (= braten, kochen) bug'lab (dimlab) pishirmoq, dimlamoq; *Gemüse, Fleisch d.* 'sabzavotlarni/go'shtni dimlamoq'; *durchbacken* obdan (yaxshi pishguniga qadar) pishirmoq; *durchbraten* yaxshilab (obdan) qovurmoq, qiyomiga yetkazib pishirmoq, qiyomiga yetkazmoq; *das Fe'leisch d.* 'go'shtni obdan, yaxshilab qovurmoq'; *durchbrennen* kuydirmoq; *durchglühen* qizdirib toblamoq, qizdirib qizil holatga keltirmoq (masalan, metallni); *eintrocknen* qotmoq, qurimoq, qotib/qurib qolmoq *die Farbe trocknet ein* bo'yoq qotadi; *ein Teich trocknet ein* 'hovuz quriydi'; *erfrieren* 1. sovuq qotib o'lmoq, sovuqdan nobud bo'lmoq 2. sovuq urmoq kimningdir (biror tana qismini); *ein Finger erfriert j-m* kimningdir barmoqlarini sovuq uradi 3. muzlab, yaxlab qolmoq, to'ngmoq; *Kartoffeln erfrieren* 'kartoshkalar muzlaydi'; 4. sich (Dat.) *etw. e.* (biror ta'na a'zosini muzlatib qo'ymoq, sovuq urdirmoq); *erhitzen* isitmoq, qizdirmoq; *Die Milch wird erhitzt, um Bakterien abzutöten* 'bakteriyalami o'ldirish uchun sut qizdiriladi'; *erstarren* Sovib qotib qolmoq, quyuqlashmoq; Gips *erstarrt* gips qotib qoladi; *frittieren* (ko'p yog'da) qovurmoq; *Fisch, Kartoffeln f.* 'go'sht, kartoshka qovurmoq'; *grillen* gril qilmoq, go'shtni cho'g'da toblab pishirmoq; *niederbrennen* yoqib kul qilmoq/kulga aylantirmoq; *pasteurisieren* pasterizatsiya qilmoq (oziq-ovqat mahsulotlarini zararli mikroblardan saqlash

uchun qizdirish orqali sterillamoq va konservalamoq); *rösten/schmoren* dimlamoq, damlamoq, dimlab (damlab) pishirmoq; *schmelzen* erimoq '*In der Sonne ist der Schnee schnell geschmolzen*' quyoshda qor tez erib ketdi; *sengen* kuydirmoq, kuydirib olmoq '*den Kragen der Bluse beim Bügeln sengen*' ko'ylak yoqasini dazmollayotganda kuydirib olmoq; *sieden* 1.qaynatmoq, qaynatib pishirmoq: *Wasser s.* 'suvni qaynatmoq'; *trocknen* 1.quritmoq, qovjiratmoq, qaqratmoq; 2.qurimoq, qovjiramoq; *verbacken* 1.pishirmoq (pechda yoki tandirda); 2.quritmoq; *verbrennen* yoqmoq, yondirmoq, yondirib/kuydirib yubormoq/tashlamoq *Abfallstoffe verbrennen* 'chiqindilarni yoqib yubormoq', *Leiche verbrennen* 'o'likni kuydirmoq', *Die Sonne hat ihn verbrannt* 'u quyoshda qorayib (kuyib) qoldi'; *verdorren* qurimoq, qovjiramoq, qurib qolmoq: *e-e Pflanze verdorrt* 'o'simlik qurib qoladi'; *ein Zweig verdorrt* 'shox quriydi'; *verglimmen* yonib, kuyib bitmoq, yonib tugamoq, yonib tushmoq; *verglühen* 1.yonib o'chmoq, yonib kul bo'lmoq 2.yonib (kuyib) ketmoq (sun'iy yo'ldosh, uchar jismlar atmosfera qatlamiga kirganda); *verkochen* (ko'p) qaynamoq, (ko'p qaynatib) quyultirib yubormoq; *verkohlen* (sirti kuyib) ko'mirga aylanmoq; *verschmoren* 1.tagiga olmoq (qaynash, dimlash natijasida); 2.qizib kuyib ketmoq (kabel haqida); *versengen* kuydirib qo'ymoq, kuydirib olmoq, kuydirmoq: *Wäsche beim Bügeln v.* 'kirlarni dazmollayotib kuydirib qo'ymoq', *sich die Haare an e-r Kerze v.* 'sochini shamda kuydirib olmoq'; *vertrocknen* qurib, qovjirab, qaqrab ketmoq: *das Gras vertrocknet* 'maysa qovjiraydi', *der Baum vertrocknet* 'daraxt quriydi'; *wegschmelzen* 1.eritib yubormoq 2.erib ketmoq; *zerkochen* 1. (yaxshi, obdan, hil-hil qilib pishirmoq) 2.yaxshi, obdan, hil-hil bo'lib pishmoq; *zerschmelzen* erimoq, eritmoq; *zusammenschmelzen* 1.eritmoq (metall va sh.k.) 2.erib ketmoq (qor haqida).

Harorat ta'siri natijasida yuzaga keladigan destruktiv jarayonlarni ifodalovchi fe'llarning semantik tuzilmasida bir qator asosiy komponentlar ajralib turadi. Xususan, bunday fe'llar semantik jihatdan harakat usuli, harakat maqsadi va harakat natijasi kabi komponentlar orqali tavsiflanadi. A.Nurmonovning qayd etishicha, o'zbek tili fe'l semantikasi ko'pincha natija va jarayonning uzviy birligi asosida shakllanadi [4]. Harakat usuli komponenti jarayonning qanday amalga oshishini, ya'ni qizdirish, muzlatish, bug'latish yoki quritish kabi jismoniy ta'sir shakllarini ifodalaydi. Harakat maqsadi esa harorat ta'siri orqali obyektning tuzilishini o'zgartirish yoki uni qayta ishlashga qaratilgan bo'lib, dezinfeksiya qilish (*abkochen*), metallni eritish (*schmelzen*) yoki oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash (*braten, backen*) kabi jarayonlarda namoyon bo'ladi. Harakat natijasi komponenti esa jarayon yakunida obyektning jismoniy holatida yuz beradigan o'zgarishlarni - suyuqlanish, bug'lanish, muzlash, qurish yoki yonish kabi holatlarni bildiradi.

Shunday qilib, nemis va o'zbek tillarida harorat ta'siri natijasida yuzaga keladigan destruktiv jarayonlarni ifodalovchi fe'llar alohida leksik-semantik guruhni tashkil etadi va ularning semantik tuzilmasi asosan harakat usuli, maqsadi hamda natijasi kabi komponentlar orqali shakllanadi. Qiyosiy tahlil ushbu fe'llarning konseptual jihatdan universallikka ega ekanligini, biroq grammatik va leksik ifodalanish vositalari jihatidan ma'lum tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, nemis tilida harorat ta'siri bilan bog'liq destruktiv jarayonlarni ifodalashda prefiksli fe'llar tizimi keng rivojlangan bo'lib, prefikslar yordamida fe'l ma'nosining turli semantik nozikliklari va jarayon bosqichlari aniqroq differensiallashadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lyons, J. (1995). *Linguistic semantics: An introduction*. Cambridge University Press.
2. Бондарко А.В. Функциональная грамматика. – Л., 1984.

3. Нахрачева Г.Л. Семантика и функционирование глаголов деструктивного действия в хантыйском языке (на материале шурышкарского диалекта): монография. – Ханты-Мансийск, 2016. – С.43.

4. Nurmonov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2012.